

**O’TKIR HOSHIMOVNING “IKKI ESHIK ORASI”  
ROMANIDAGI INSONIY FAZILATLAR**

*Jumabayeva Yulduzxon Bekpulatovna*

*Toshkent shahar Yakkasaroy tumani 26- maktab*

*Ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi*

**Annotatsiya:** O’zbek xalqining qalbida jo’sh urib turgan farzandi bu O’tkir Hoshimov desak mubolag’a bo’lmaydi. O’tkir Hoshimov qalami o’tkir, zabardast yozuvchi. O’tkir Hoshimov har doim o’zining yozgan asarlari bilan kitobxonlar qalbidan chuqur joy egallagan. Sababi, u asarlarida umuminsoniy muammolarni badiiy yo’l bilan qalam orqali yoritadi. Asosan, “Ikki eshik orasi” romani uning ijodida asosiy o’rin egallagan. Kalit so’zlar: asar, obraz, “Ikki eshik orasi”, badiiy mezon

**Аннотация:** Не будет преувеличением сказать, что Уткир Хашимов – сын узбекского народа. Перо Уткира Хашимова острое, писатель острый. Уткир Хашимов своими произведениями всегда занимал глубокое место в сердцах читателей. Причина в том, что он художественно освещает общечеловеческие проблемы посредством своего пера. В основном роман «Между двумя дверями» занимал главное место в его творчестве.

**Ключевые слова:** произведение, образ, «Между двух дверей», художественный критерий.

**Abstract:** It will not be an exaggeration to say that Otkir Gashimov is the son of the Uzbek people. Utkir Gashimov's pen is sharp, the writer is sharp. Otkir Gashimov with his works has always occupied a deep place in the hearts of readers. The reason is that he artistically illuminates universal human problems through his pen. Basically, the novel “Between Two Doors” occupied the main place in his work.

**Key words:** work, image, “Between Two Doors”, artistic criterion.

O’zbek adabiyotida eng ko’p o’qiladigan kitoblardan biri “Ikki eshik orasi” asarining bunday nomlanishiga sabab, yozuvchi insonning tug’ulgan davridan to vafot etishigacha bosib o’tgan yo’lini ikki eshik orasidagi masofaga falsafiy jihatdan qiyoslaydi. “Ikki eshik orasi” asarida O’zbek millatining o’ziga xos dunyoqarashi, ijtimoiy hayoti, mehnat faoliyati, yashash tarizi, sharoiti, milliy madaniyati yorqin tasvirlangan. Va insonlarning ikkita eshik orasichalik umrida hayotning naqadar murakkabligi, siru-sinoatlarga to’laligi va kurashgan insongina bu yo’lni muvaffaqiyatli tugallashi mahorat bilan ifodalangan. “Ikki eshik orasi” asari 1986-yilda nashr ettirilgan va o’sha yilning eng yaxshi asari deb topilgan. Bu asar O’tkir Hoshimov ijodida bitmas tuganmas durdonalardan biridir. O’tkir Hoshimov bu nodir asarni butun o’zbek xalqiga azaliy meros qilib qoldirgan. Bu asarda 2-jahon urushi

yillarida sodir bo'lgan voqealar va urushga ketgan farzandining dog'ida yonib kuygan ona tasviri har bir asar o'quvchi kishining hissiyotlarini to'lqinlantiradi. Yozuvchi mohirona tarzda asar obrazlarining ichki kechinmalarini kutobxonga ochib bergan. Bu asarni o'qish orqali kishi o'sha urush fojealarini ko'rmagan, bilmagan bo'lsada o'sha daxshatni tasavvur qila oladi. Bu romandagi asosiy obrazlar: Orif Oqsoqol, Husan Duma, Komil Tabib, Muzaffar, Robiya, Ra'no hisoblanadi. O'tkir Hoshimov o'ndan ortiq qissa va romanlar, o'nlab hikoyalar, bir necha pyesalar yaratgan. O'tkir Hoshimovning “Urushning so'nggi qurboni”, “Muhabbat”, “Dehqonning bir kuni”, “Oq bulut, oppoq bulut”, “O'zbeklar”, “Uyqusiz tunlar”, “Nega, nega-a-a?!” kabi hikoyalari; “Qatag'on”, “Inson sadoqati”, “To'ylar muborak” nomli pyesalari; “Cho'l havosi”, “Odamlar nima derkin”, “Shamol esaveradi”, “Qalbingga quloq sol”, “Ikki karra ikki – besh”, “Bahor qaytmaydi”, “Dunyoning ishlari” singari qissalari; “Nur borki, soya bor”, “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar” kabi romanlari XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga qo'shilgan munosib xissa bo'ldi. O'tkir Hoshimovning so'nggi asari bo'lgan “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”da adibning falsafiy mulohazalari, hayot, ijod, insoniy tuyg'ular va urushlar haqidagi o'z qarashlari hamda farzandlariga o'g'itlari o'z aksini topgan. Unda keltirilgan aforizmlar orqali O'.Hoshimovnafaqat yozuvchi, balki faylasuf sifatida ham namoyon bo'ladi. O'tkir Hoshimovning asarlarida milliylik, insonparvarlik, tinchliksevarlik g'oyalari o'z ifodasini topgan. Adib ham hajviy usulda, ham dramatism va konfliktga boy tarzda ijtimoiy voqelik, insonlar o'rtasidagi turli munosabatlarni tasvirlaydi. O'tkir Hoshimovning mahorati shundaki, u lirik kechinma va epik ko'lam mushtarakligi tabiatiga ham manaviy-axloqiy masalalar echimi, ham inson psixologiyasi teranligini singdira oladi. Turmush tafsilotlari, hayotiy-maishiy detallar, hissiyot quyugligi adib shakliy izlanishlarini g'oyaviy mazmun bilan boyitadi. “Dunyoning ishlari” qissasi muallifning onasi vafoti bilan boshlanib uni qabrga qo'yish bilan yakunlanadi. O'.Hoshimov qalamiga mansub asarlarda lirik ta'kid turli xil usullar vositasida voqelik bayonini to'ldirib turadigan mohiyatga aylanadi. Xususan, hissiyot ko'lami kitobxonni hayajonda tutib turadigan estetik pafos darajasiga ko'tariladi. Shuningdek, liro-romantik talqin badiiy butunlikni ta'minlaydigan xarakterli xususiyatdir. O'tkir Hoshimov «Dunyoning ishlari» qissasida Sepkilli xola, Zebi xola, Bashorat xola, Acha xola, Amma, Risolat opa, Habiba buvi, Hoji buvi singari obrazlarga murojaat qiladi va ularni estetik markaz – ona siymosi atrofiga jamlaydi. E'tiborli jihati muallif ayollarning turfa yosh –mantiqiy uzviylikda tasvirlanishi, kasb-hunar nuqtai nazaridan rang-barangligi o'zbekona turmush tarzini to'laroq tasvirlash imkonini beradi. Har bir qahramon o'zida aks ettirgan “g'oyaviy yuk” ni badiiy chizgilar bilan to'ldira boradi. Shu tariqa Poshsha ona xarakteri qirralari birma-bir ochila boshlaydi. Asardagi hikoyalar turli voqealar bayoniga bag'ishlangan bo'lsa-da, ularda ona–Hakima aya obrazi

tutashtiruvchi ip bo‘lib o‘tadi, voqealar rivoji bevosita yoki bilvosita tarzda ona taqdiriga borib taqaladi. Yozuvchining o‘zi ham bu fikrni tasdiqlaydi: —Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida men uchun eng aziz odam onam siymosi bor.... Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihati bilan onamga bog‘langan [3]. Shunday qilib, “Dunyoning ishlari” falsafiy umumlashmalarga boy, kundalik inson hayotining turli qirralari haqida fikr yuritishga undaydigan, yuksak emotsional pafos bilan yozilgan lirik –psixologik qissadir. Yozuvchi hayotda tez-tez uchrab turadigan odamlarning tipik obrazlarini, oddiy kundalik sharoitlarni ko‘rsatib, ular jarayonida Ona obrazini yaqol namoyon etgan, o‘zbek ayolining ma‘naviy-axloqiy e‘tiqodlarini badiiy tahlil qilishni o‘z oldiga asosiy maqsad qilib qo‘ygan. Ona obrazini hayotiy va dolzarb qiladigan yana bir muhim jihat shundaki, u bolalarda insoniy fazilatlarini tarbiyalaydi va ularda dunyo haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi. “Muallifni endi kundalik dolzarb ijtimoiy masalalar emas, ko‘proq azaliy ma‘naviy muammolar, inson takdiri, uning qalbi jumboqlari kiziktiradi. Bu narsa “Ikki eshik orasi” romanida ayniqsa, ravshan ko‘rindi. Bu bilan adib ijodiy yo‘lining etuklik bosqichi boshlandi [2]. Yozuvchining “Ikki eshik orasi” romani ham kitobxonlar tomonidan iliq kutib olindi. Roman 1986 yilning eng yaxshi asarlaridan deb topilib, Hamza nomidagi respublika Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgandi. “Ikki eshik orasi” romanida o‘z davrining muhim muammolari qalamga olindi, o‘sha yillar voqea-hodisalariga munosabat bildirildi. Romanning asosiy qahramonlari ikkinchi jahon urushi og‘irliklarini yelkasida ko‘targan, unda mardona g‘olib chiqqan kishilardir. Umuman olganda, romanda butun jamiyat kishilarining urush davridagi fidokorligi o‘zining badiiy ifodasini topgan. Roman qahramonlaridan biri Muzaffar –urush davrida muayyan qiyinchiliklarni boshidan kechirgan, 70-yillarga kelib farovon turmushga erishgan Yoshlarning timsoli tarzida beriladi. Romanning sarlavhasidan tortib, deyarli butun mazmunigacha yozuvchi jiddiy falsafiy ma‘no yuklashga intilgan. Shunday qilib, u “Ikki eshik orasi” deganda inson umrini, ya‘ni tug‘ilgandan o‘lgungacha bosib o‘tgan yo‘lni ko‘zda tutadi. Muallifning g‘oyaviy falsafasiga ko‘ra bu yo‘l juda murakkab va ziddiyatli bo‘lib, uni muvaffaqiyat bilan bosib o‘tishi uchun insondan katta matonat, iroda, bilim va jasorat talab qilinadi. “Asardagi ko‘pchilik qahramonlar, xususan, Oksoqol, Qora amma, Robiya, Shomurod, Kimsan huddi shunday jasoratli va ruhan boy kishilar bo‘lib, ko‘p jihatdan yozuvchining g‘oyaviy maqsadini ta’sirchan ifodalashga xizmat qilgan. Muallif falsafasiga ko‘ra o‘z umrini sharaf bilan bosib o‘tmog‘i uchun insondan katta matonat va jasorat talab kilinishining sababi shundaki, u o‘z hayoti davomida og‘ir kurashlar girdobidan, yengib bo‘lmas to‘siqlardan o‘tishga majbur bo‘ladi. Asardahuddi shunday inson hayotining to‘siqlari, illatlari sifatida Umar zakonchi, Ra‘no, Zuhra kabi shaxslar timsoli yaratilgan bo‘lib, ular romandagi kurashlar, to‘qnashuvlar, ma‘naviy ixtiloflar keskinligini, tarangligini oshirishga imkon

tug‘dirgan” [1].Xulosa qilib, aytganda romanda insonlar taqdiri, hayotning naqadar mukammal ekanligi ajoyib tarzda yoritib berilgan. Adib asarda birinchi navbatda tinchlikka rahna solgan qonli urushni qoralaydi, uning odamgarchilikning hech bir pog‘onasiga to‘g‘ri kelmaydigan g‘ayriinsoniy mohiyatiga alohida urg‘u beradi. Ayniqsa urush voqealari har bir ota –onaning qalbida o‘chmas dog‘ qoldirgani haqida so‘z boradi. Muallif qalamga olgan asar qahramonlari orqali insonlarning aksariyat fazilatlarini ko‘rsatilib o‘tilgan. Asar bu qadar jonli chiqishiga sababi buni yozuvchi teran anglagan holda, ya‘ni boshidan o‘tkan kechinmalar orqali yozgan. Ba‘zilarini bilan gaplashib olgan xulosalarini, ba‘zilarini aytgan gaplarini, ba‘zilarini esa o‘ylagan hayollarini yozganlar. Asarda keltirilgan kuchli iqtiboslardan ham buni yaqqol ifodasini ko‘rish mumkin.Masalan: “Odam bolasining fe‘li qiziq. Avvalo, umid bilan qurgan imorating og‘masin ekan. Bir og‘dimi, bo‘ldi, baribir yiqilarkan. To‘sib qolaman desang, bosib tushib o‘zingni ham parcha-parcha qilib tashlashidan qo‘rqar ekansan. Negaki, o‘sha imoratning poydevori qo‘porilishiga bir chekkasi o‘zing ham sababchi ekanligingni bilarkansan....Bilmadim, balki shafqatsiz odam -diyonatsiz bo‘lar. Lekin diyonatli bo‘lish uchun ham shafqatsiz bo‘lish kerak. Men shunga ishonдим. Urush meni shunga majbur qildi, Robiya!....“Rost bilan yolg‘onning o‘rtasi to‘rt enlik”, degan gap bor. Qiziq, nega endi oz emas, ko‘p emas, to‘rt enlik? Gap shundaki, ko‘z bilan quloqning orasi to‘rt enlik ekan. Eshitganingga emas, ko‘rganingga ishon... Maqsad -shu.... [4].Yuqorida tilga olingan so‘nggi ikki asarida O‘tkir Hoshimovning inson ma‘naviy olamini, psixologiyasini teran tahlil qilish mahorati ancha oshganligi aniq-ravshan sezilib turadi. Bunda yozuvchi turli-tuman vositalar qatorida qahramonlarning dil izhorlaridan, ichki monologlaridan unumli foydalanib insoniy fazilatlarni yaqqol ifodalagan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Xolmatov O. XX asr o‘zbek va G‘arb prozasida urush odamlari talqini. Farg‘ona Davlat Universiteti. 2019.
- 2.Sodiq S. Yangi O‘zbek adabiyoti. Toshkent: O‘zMU. 2018.
- 3.Karimova A. Taniqli oz‘bek adibi O‘tkir Hoshimov. –Toshkent: Ilm-fan, 2020.
- 4.Hoshimov O. Tanlangan asarlar. 2-jild. –Toshkent: Sharq, 2009.
- 5.Nosirovna, M. M., &Musulmanovich, N. J.(2021). Dialect Words in the Works of Maksim.